


QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 4462,1 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar -4440,3 mlrd.so'mni (103,8 foiz), o'rmon xo'jaligida-6,6 mlrd.so'mni (102,6 foiz), baliq xo'jaliklari-15,2 mlrd.so'mni (197,9 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (109,4 foiz), Kogon (106,8 foiz), Buxoro (105,8 foiz) tumanlarida kuzatildi. Kogon shahar (87,9 foiz) va Qorovulbozor(101,7 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Buxoro tumaning ulushi 11,9 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, G'ijduvon va Jondor tumanlari mos ravishda 11,3 foiz va 11,1 foiz ko'rstanich bilan keyingi o'rnlarni egalladi. Eng kam ulush Kogon shahar (0,1 foiz), Buxoro shahar (1,8 foiz) va Qorovulbozor (2,7 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 98,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari-110,0 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,8 foizi-dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 23,0 foizi-fermer xo'jaliklariga, 3,2 foizi-qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'satkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 2117,6 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,1 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,4 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. Joriy yilning yanvar- sentyabr oylarida don jami 541147 tonna (93,3 foiz), paxta jami 136334 tonna (61,4 foiz), kartoshka 205212 tonna (112,8 foiz), sabzavotlar 649248 tonna (109,7), poliz 110011 tonna (108,3 foiz), meva va rezavorlar 221272 tonna (108,4 foiz), uzum 145797 tonna (107,8 foiz) yig'ib olindi.

Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida umumiy



kartoshkaning 91,8, sabzavotlarning hajmining 83,9, polizning 82,5, meva va rezavorlarning 61,9, uzumning 69,4 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi.

Chorvachilik




2018 yil yanvar- sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2266,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 110,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 50,8 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 176,5 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar- sentyabriga nisbatan 10,7 foizga ko'p), 687,5 ming tonna sut (8,5 foizga), 322,3 mln.dona tuxum (23,0 foizga), 2891,0 tonna jun (2,3 foizga), 414,8 ming dona qorako'l teri (2,5 foizga), 1632 tonna pilla ,1605 tonna asal (3,2 foizga) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi





Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 96,6 foizi dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,4 foizi, tuxumning 57,3 foizi, junning 84,4 foizi, qorako'l terining 87,4 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.



Ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi

Go'sht (*ming.t*)

Sut (*ming.t*)




Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1205,2 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 396,4 ming boshga, qo'y va echkilar – 2082,3 ming boshga, ot-4914 bosh, parrandalar – 4333,6 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 41,9 ming boshga (3,6 foizga), shu jumladan sigirlar – 40,0 boshga, qo'y va echkilar – 78,9 ming boshga (3,9 foizga), otlar – 344 boshga (7,5 foizga), parrandalar – 597,1 ming boshga (16,0 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 5,3 foizi fermer xo'jaliklari 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 82,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 60,9 foizi dehqon (shaxsiy

yordamchi) xo'jaliklariga, 32,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramollar va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2018 yil 1 oktyabr holatiga



Qo'y va echkilar (ming.bosh)



Parrandalar (ming.bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- +99865-223-68-82
- +99871-230-83-07